JINOYAT ISHLARI YURITUVIDA protsessual xatolarni sudda bartaraf qilish mexanizmlari



Kontinental huquq tizimi jinoyat protsessida jinoyat protsessual qonunning jiddiy buzilishlarini ishni sudga qadar yuritish bosqichining o‘zida sud nazorati orqali hal qilish samarali mexanizm sifatida ko‘riladi. Dastlabki tergovning to‘liq emasligi muammosi esa ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish orqali emas, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishni tergov organiga topshirish orqali bartaraf etiladi.

Kontinental huquq tizimida “jinoyat protsessual qonunning jiddiy buzilishi” atamasi o‘rniga “adolatli odil sudlovga bo‘lgan huquq buzilishi”dan foydalanish qabul qilingan.

Umuman, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi amaliyoti huquqiy barqarorlik prinsipini “qonunning jiddiy buzilishidan” ustunroq deb biladi, ya’ni adolatli jazo konsepsiyasidan kelib chiqadi. Faqatgina ayrim holatlarda qonunning jiddiy buzilishi (fundamental defect) yoki odil sudlovning tegishli tartibda amalga oshirilmasligi (miscarriage of justice) hukmni bekor qilishga asos bo‘lishini ta’kidlaydi[1].

Davlat organlarining xatolari ayblanuvchining holatini yaxshilashi lozim. Boshqacha aytganda, ayblov organlari va sud tomonidan yo‘l qo‘yiladigan har qanday xato uchun javobgarlik davlat zimmasida bo‘lishi, shuningdek, manfaatdor shaxs hisobiga tuzatilmasligi kerak[2].

Sudning pozitsiyasi alohida tergov harakatidagi qonun buzilishiga emas, balki umuman protsessning adolatliligiga yaxlit baho berishga asoslanadi (fairness of the proceedings taken as a whole), ya’ni muayyan tergov harakatiga avtonom baho berilmaydi. Sudning fikricha, qonunning har qanday buzilishi keyingi bosqichlarda tuzatilishi mumkin.

Misol uchun “Trepashkin v. Russia” ishida arizachi ish hujjatlari bilan tanishish chog‘ida qo‘lida kishan bo‘lgani jinoyat ishi bilan tanishishiga to‘sqinlik qilgani haqida vaj keltirgan. Biroq sud arizachi bunga qadar tergov jarayonida qamoqda bo‘lmagani va sud jarayonida ish materiallari bilan tanishish imkoni bo‘lganini qayd etib, da’voni rad qilgan[3].

“Sakhnovskiy v. Russia” ishida sud nafaqat formal jihatdan advokat bilan ta’minlash, balki undan real foydalanish imkoniyatini ta’minlash himoya huquqining tarkibiy qismi ekanini qayd qilgan[4].

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining amaliyotidan kelib chiqib, adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquq quyidagi protsessual huquqlarning ta’minlanishini nazarda tutadi:

1) Odil sudlovga erishish huquqi;
2) Qonun asosida tuzilgan sudga bo‘lgan huquq;
3) Mustaqil va xolis sudga bo‘lgan huquq;
4) Taraflarning tengligiga bo‘lgan huquq;
5) Himoyaga bo‘lgan huquq;
6) Ochiq sud muhokamasiga bo‘lgan huquq;
7) Asoslantirilgan sud qarorini olishga bo‘lgan huquq;
8) Sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqi;
9) Yakuniy va barqaror sud qaroriga bo‘lgan huquq;
10) Sud hujjatining ijro etilishiga bo‘lgan huquq;
11) Ishning oqilona muddatlarda ko‘rib chiqilishiga bo‘lgan huquq.

Fransiyada dastlabki tergovni sud hokimiyati vakili bo‘lgan tergov sudyasi amalga oshiradi. Uning harakat va qarorlari yuqori instansiyalarga shikoyat qilinishi mumkinligini hamda taraflarga jinoyat-protsessual qonunning buzilishi ustidan dastlabki tergov bosqichining o‘zida shikoyat berish huquqini kafolatlaydi. Tergov harakatlari yakunlangandan so‘ng taraflarga mazkur harakatlar ustidan shikoyat qilish uchun 20 kun vaqt beriladi. Mazkur muddat tugagandan so‘ng, agar taraflar mazkur huquqdan foydalanmagan bo‘lsa, dastlabki tergovdagi jiddiy qonun buzilishlari haqida vaj keltirish huquqidan mahrum bo‘ladi. Ya’ni ish sud muhokamasiga kelib tushguniga qadar dastlabki tergov davomida yo‘l qo‘yilgan jiddiy qonun buzilishlari muammosi uzil-kesil hal qilinadi.

Fransiyada dastlabki tergovning to‘liq emasligi qo‘shimcha tergov instituti orqali bartaraf qilinishi 1808-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan. 1958-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksning 283–284-moddalarida ushbu tartib saqlab qolingan. Unga muvofiq ishni sudda ko‘rish uchun tayyorlash chog‘ida sudda raislik qiluvchi agar tergov to‘liq o‘tkazilmagan deb topsa, har qanday tergovni o‘tkazish haqida farmoyish berishi mumkin. Ushbu tergov harakatini raislik qiluvchi yoki hay’at a’zolari bo‘lgan sudyalardan biri yoki tergov sudyasi dastlabki tergov uchun belgilangan qoidalar bo‘yicha amalga

[1] “Sutyazhnik v. Russia” иши бўйича 2009 йил 23 июлдаги қарор, 35-банди.
[2] “Radchikov v. Russia” иши бўйича 2007 йил 24 майдаги қарор.
[3] “Trepashkin v. Russia” ishi 2010-yil 16-dekabrdagi qaror.
[4] “Sakhnovskiy v. Russia” ishi 2010-yil 2-noyabrdagi qaror .

oshiradi. Biroq bunda ish sudning ixtiyorida qoladi va boshqa organga yuborilmaydi. Tergovni oʻtkazish tergov sudyasiga topshirilgan taqdirda ham u faqat farmoyishda koʻrsatilgan tergovni oʻtkazadi, hech qanday protsessual qarorlar qabul qilmaydi.

Jinoyat-protsessual qonunnining jiddiy buzilishi bilan bogʻliq protsessual xatolarni bartaraf qilish, JPKning 385-moddasida belgilangan tartibda, ishni prokurorga qaytarish orqali hal qilinadi.

Fransiyada protsessual xatolar mazmunidan kelib chiqib, uni bartaraf qilish mexanizmlari differensiatsiya qilingani, ya'ni protsessual xatolar va tergovning toʻliq emasligi turli vositalar orqali bartaraf qilinishini koʻrish mumkin.

Ayblovni ogʻirrogʻiga oʻzgartirish JPKning 389-moddasida belgilangan avertissement instituti orqali hal qilinadi. Prokuror ayblanuvchiga yangi ayblovni jinoyat qonuni moddasiga asoslanib yuboradi, agar ayblanuvchi sudga ixtiyoriy ravishda kelgan taqdirda, qoʻshimcha protsessual harakatlar zarur boʻlmaydi. Mazkur tartib jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs jinoyat sodir etganini koʻrsatuvchi holatlar aniqlanganda ham qoʻshimcha tergovga qaytarish zaruratini bartaraf etadi.

Fransiya JPKda jinoyat-protsessual qonun buzilishi oqibatlarini qoʻllashda Belgiya va Italiya kabi "asosli jazo nazariyasi"ga asoslanadi. Ya'ni, tayinlangan jazo qonunga muvofiq boʻlsa, protsessual xatolarga asoslanib hukmni bekor qilish mumkin emas. Moddiy qonun protsessual qonundan ustuvor hisoblanadi.

Germaniya JPKda ishni qoʻshimcha tergovga qaytarish asoslari aniq belgilanmagan. Asosiy sud muhokamasiga tayyorgarlik bosqichida sud asosiy sud muhokamasini ochish imkonsizligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Mazkur qaror faqat sudning tashabbusi bilan qabul qilinishini mumkin, biroq prokuror uning ustidan shikoyat qilish huquqiga ega(Germaniya JPKning 204-moddasi).

Biroq asosiy sud muhokamasi boshlangandan soʻng har qanday holatda ham ish prokurorga qaytarilmaydi.

Germaniya JPKning 264-moddasiga muvofiq sud qilmishning sud muhokamasini ochish haqida ajrimda koʻrsatilgan kvalifikatsiyasi bilan bogʻliq emas.

Germaniya JPKning 265-moddasida sudlanuvchi sud muhokamasiga kiritilgan ayblovda koʻrsatilmagan jinoyat qonuni normasi boʻyicha sudlanishi mumkin emasligi belgilangan boʻlsa-da, bunda 2 ta istisno mavjud:

1) Sudlanuvchi ayblov oʻzgarishi haqida ogohlantirilganda;

2) Unga himoyasiga tayyorgarlik koʻrish uchun, shu jumladan ishni iltimosnomasiga asosan qoldirish orqali imkoniyat berilganida[5,6].

Shu sababli Germaniya jinoyat protsessida ayblovni ogʻirrogʻiga oʻzgartirish uchun qoʻshimcha tergovga qaytarish tartibi mavjud emas. Germaniyada prokurorga tanlov berilgan: u ishning kamchiliklarini sud muhokamasida bartaraf etadi yoki jinoyat ishi notoʻgʻri qoʻzgʻatilgan boʻlsa oqlov hukmi oladi[7].

Kontinental huquq tizimida "jinoyat protsessual qonun jiddiy buzilishi" tushunchasi apellyatsiya yoki kassatsiya asoslari sifatida ifodalanadi. Ayrim davlatlarda qonun bilan belgilanmagan bu tushuncha sudda hal qilinishi mumkin, ammo bu yagona sud amaliyotini shakllantirishga toʻsqinlik qiladi, chunki bir sud bir qonun buzilishini jiddiy deb topgan boʻlsa, boshqa sud uni jiddiy deb hisoblamasligi mumkin. Binobarin, kontinental huquq tizimida jinoyat protsessual qonun jiddiy buzilishining shartli va shartsiz shakllari ajratiladi.

Jinoyat protsessual qonun jiddiy buzilishining shartli shaklida qonun buzilishining jiddiy yoki jiddiy emasligi ishning muayyan holatidan kelib chiqib, sud tomonidan aniqlanadi. Bunda asosiy mezon sifatida qonun buzilishi ish holatlarini har tomonlama aniqlash, qonuniy va asosli qaror qabul qilinishiga qay darajada ta'sir oʻtkazganligi belgilangan.

Qonun buzilishining shartsiz shakli qonunni qoʻllovchida ixtiyor qoldirmaydi. Sababi uning jiddiyligini qonun chiqaruvchi belgilagan boʻlib, jiddiy deb e'tirof etiladigan qonun buzilishi roʻyxati uzil-kesil boʻladi.

[5] "Radchikov v. Russia" иши бўйича 2007 йил 24 майдаги қарор.
[6] Уголовно-процессуальный кодекс Федеративной Республики Германии (с изм. и доп. на 1 января 1993 г.) / Пер. Филимонова Б.А. М., 1994.
[7] Стойко Н.Г. Уголовный процесс западных государств и России: сравнительное теоретико-правовое исследование англо-американской и романо-германской правовых систем: монография. – СПб.: Изд. Дом С.- Петерб. гос. ун-та, 2006. – 264 с.

Biroq mazkur variantda qonunni qo‘llovchiga diskretsion vakolat berilmasligi natijasida sud muhokamasida faqatgina shu turdagi qonun buzilishi mavjud yoki yo‘qligi tekshiriladi. Ushbu tushunchani butunlay formallashtirish mumkin emas. Chunki bu jinoyat sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini muayyan jinoyat ishining holatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish imkoniyatidan mahrum qiladi[8].

Ayni vaqtda har ikkala variantni ko‘zda tutuvchi aralash shakl ham mavjud bo‘lib, bunday qonun buzilishining asosiylarini qonun chiqaruvchi belgilaydi. Biroq ishning holati va qonun chiqaruvchi belgilagan mezonlardan kelib chiqib, qonunni qo‘llovchiga ham ixtiyor beriladi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi amaliyotida jinoyat protsessual qonun jiddiy buzilishi atamasidan foydalanmasa-da, unga qonun ustuvorligi prinsipining tarkibiy qismi va adolatli sud muhokamasining sharti sifatida qaraydi.

Umuman, kontinental huquq tizimida jinoyat protsessual qonun normalarining buzilishi:

1) Hukmning bekor qilinishiga asos bo‘luvchi jinoyat protsessual qonun normalarining buzilishi (asosan Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari uchun xos);

2) Ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uchun asos bo‘luvchi protsessual qonun buzilishlari (G‘arbiy Yevropa davlatlari)ga ajratiladi.

Anglo-sakson jinoyat protsessida “jiddiy buzilish” bilan bog‘liq savolning qo‘yilishida hech qanday ma’no yo‘q. Sababi bunda jinoyat-protsessual kodekslar mavjud emas. Ishni sudga qadar yuritish (politsiya) faoliyatini tartibga solish faqatgina jismoniy erkinligini cheklovchi majburlov choralari qo‘llash yoki shaxsning fundamental huquqiga daxl qiluvchi dalillar to‘plash yuzasidan amalga oshiriladi[9].

Angliya jinoyat protsessida, sud muhokamasida ayblovni og‘irlashtirish zarurati yuzaga kelgan holda, ayblov tomoni ayblovni qaytarib olish huquqidan foydalanishi, ya’ni suddan ishni ko‘rib chiqmaslikni so‘rashi va yangi ayblov e’lon qilishi mumkin.

Buyuk Britaniya jinoyat protsessida protsessual qonunning buzilishi yuzasidan “ayblilik haqida qarorning ishonchsizligi” asosida shikoyat qilishga yo‘l qo‘yiladi. Biroq maslahatchilar chiqargan verdikt(qaror)ning ishonchli ekani, protsessual qonun buzilgani vaji bilan uni bekor qilish imkonini istisno qiladi. Ya’ni har qanday holatda protsessual qonun buzilishi hukmning ishonchli ekaniga qay darajada ta’sir qilganidan kelib chiqib baho beriladi.

AQSHda jinoyat protsessual qonunning jiddiy buzilishi tushunchasi qonun bilan belgilanmagan bo‘lib, ushbu masala sud amaliyoti bilan tartibga solingan.

Mazkur normaning ijobiy tomoni sud zimmasiga faqatgina dastlabki tergovning to‘liq emasligini bartaraf qilish majburiyatini yuklamasdan, uni bartaraf qilishning real mexanizmi belgilangan. Bundan tashqari, jinoyat ishi tergovga qaytarilmasdan oldin tergovga aniq majburiyatlar yuklanishi, tergovchining ishning natijasi bo‘yicha protsessual qaror qabul qila olmasligini, ya’ni ishning pirovard natijasini faqat sud hal qilishini ta’minlaydi. Biroq ushbu mexanizmning salbiy tomoni shundaki, sud muayyan tergov yoki qidiruv harakatlarini tergovchiga topshiradi, bu esa sudning funksiyasiga to‘g‘ri kelmaydi va tergov organi rahbari bajarishi lozim bo‘lgan harakatni amalga oshirishga olib keladi.

> Kontinental huquq tizimida “jinoyat protsessual qonun jiddiy buzilishi” tushunchasi apellyatsiya yoki kassatsiya asoslari sifatida ifodalanadi. Ayrim davlatlarda qonun bilan belgilanmagan bu tushuncha ixtiyor sudda hal qilinishi mumkin, ammo bu yagona sud amaliyotini shakllantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki bir sud bir qonun buzilishini jiddiy deb topgan bo‘lsa, boshqa sud uni jiddiy deb hisoblamasligi mumkin.

O‘tkir MAMADALIYEV,
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi

[8] Мельников В.Ю. Нарушения уголовно-процессуального законодательства и пути их устранения: учебник / Мельников В.Ю.; Ростовский институт (филиал) ВГУЮ (РПА Минюста России). – Ростов-на-Дону : Фонд науки и образования, 2021. – 92 б.

[9] Головко Л.В. Истоки и перспективы института дополнительного расследования уголовных дел на постсоветском пространстве // Государство и право, 2009, № 11, с. 54–67.